

SOTSIAL TARAQQIYOT: TARIX BA BUGUN

Botirova Diyora Sharofiddin qizi

botirovadiyora90@gmail.com

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti psixologiya va sotsiologiya kafedrasi sotsiologiya yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada sotsial taraqqiyotning rivojlanish bosqichlari, tarixiy ildizlari hamda bugungi davrda zamonaviy jamiyatdagi ko'rinishlari ilmiy tahlil qilinadi. Avvalo, insoniyat tarixida jamiyatning shakllanishi, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi va sotsial tizimlarning paydo bo'lishi jarayoni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, turli davrlarda sotsial taraqqiyotga ta'sir ko'rsatgan omillar — iqtisodiy o'zgarishlar, siyosiy islohotlar, texnologik yangiliklar hamda madaniy qadriyatlar rivoji tahlil etiladi. Maqolada bugungi globallashuv davrida sotsial taraqqiyotning yangi tendensiyalari, ijtimoiy adolat, tenglik, inson kapitali va raqamli transformatsiya kabi yo'nalishlarning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: sotsial taraqqiyot, inson kapitali, globallashuv, ijtimoiy adolat, jamiyat rivoji, sotsial o'zgarishlar, tarixiy bosqichlar.

KIRISH

Insoniyat taraqqiyoti davomida jamiyatning shakllanishi, rivojlanishi va o'zgarishi muhim ilmiy tadqiqot obyekti sifatida sotsiologiya fanining markaziy mavzularidan biri hisoblanadi. Sotsial taraqqiyot deganda jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy sohalarida bosqichma-bosqich rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi hamda ijtimoiy institutlarning takomillashuv jarayoni tushuniladi. Bu jarayon inson faoliyati, texnologik kashfiyotlar, ijtimoiy tuzilma va global jarayonlarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi.

Giddensning fikriga ko'ra, sotsial taraqqiyot tarix davomida uzluksiz bo'lib, jamiyatlar texnologik yangiliklar, siyosiy islohotlar, urbanizatsiya, globallashuv, modernizatsiya kabi omillar ta'sirida shakllanadi. Tarixiy davrlarda sodir bo'lgan ijtimoiy o'zgarishlar bugungi ijtimoiy tizimlar, ijtimoiy munosabatlar va global ijtimoiy jarayonlarning asosini tashkil etadi.¹³

Tarixiy taraqqiyotning eng muhim bosqichlari — qabilaviy jamiyatdan sanoat jamiyatiga, undan esa postindustrial va axborot jamiyatiga o'tish — sotsial tuzilma va hayot tarzida tub o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Bugungi

¹³ Giddens, A. (2009). Sociology (6th ed.). Polity Press.



kunda esa raqamli texnologiyalar, internet, sun'iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar va global integratsiya sotsial taraqqiyotning yangi bosqichini shakllantirmoqda. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki kundalik hayot, ta'lim, muloqot, mehnat bozori, madaniyat va ijtimoiy ongni ham tubdan o'zgartirmoqda.¹⁴

Metod va materiallar. Ushbu maqolada sotsial taraqqiyot jarayonlarining tarixiy shakllanishi va zamonaviy rivojlanish xususiyatlarini yoritish maqsadida kompleks ilmiy metodlar qo'llanildi. Masalan:

Tahlil va sintez metodi – sotsial taraqqiyotga oid nazariy qarashlar, ilmiy yondashuvlar va konsepsiyalarni alohida elementlarga ajratib o'rganish hamda ularni yagona tizimda umumlashtirish uchun foydalanildi.

Taqqoshlama (komparativ) metod – tarixiy va zamonaviy sotsial taraqqiyot modellarini, shuningdek, turli davr va jamiyatlardagi ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini solishtirish orqali ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashda ishlatildi.

Tizimli (sistemali) yondashuv – sotsial taraqqiyotni o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy institutlar majmui sifatida tadqiq etishda qo'llanildi.

Nazariy umumlashtirish metodi – o'rganilgan ilmiy manbalar va zamonaviy ilmiy qarashlar asosida sotsial taraqqiyotning hozirgi holati va istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha xulosalar chiqarishda foydalanildi.

Materiallar sifatida esa A. Giddensning “Sotsiologiya”, P. Sorokinning “Sotsial dinamika”, M. Veberning ijtimoiy harakatlar nazariyasi, E. Dyurkgeymning jamiyat haqidagi qarashlari — sotsial o'zgarish va taraqqiyot masalalari keng yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili. Maqolani ilmiy jihatdan asoslashimiz uchun bir qator zamonaviy va klassik ilmiy manbalar tahlil qilindi. Antoni Giddensning “Sotsiologiya” kitobida sotsial taraqqiyotning zamonaviy nazariy talqinlari, modernizatsiya, globalizatsiya, industrial jamiyat haqidagi yondashuvlar mavjud. Giddensning bu asari bugungi davrdagi sotsiologiya uchun juda mos keladi. Yana bir sotsiolog olim, Ogust Kontning “Pozitivizm asoslari” asarida jamiyat taraqqiyotini “uch bosqich qonuni” orqali tahlil qilinadi. Kontga ko'ra, insoniyat teologik, metafizik hamda pozitiv bosqichdan o'tadi. Bu jarayon jamiyatning evolyutsion shaklini ko'rsatadi.

Maks Veberning “Protestant etikasi va kapitalizm ruhi” asarida esa iqtisodiy taraqqiyot va diniy qadriyatlarning bir biri bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Veberning ratsionallashuv, byurokratik boshqaruv va sivilizatsiyaning modernlashuv jarayonlarini sotsial taraqqiyotning muhim omillari sifatida

¹⁴ Parsons, T. (1951). The Social System. Free Press.



ko‘riladi. Daniel Bellning “Postindustrial jamiyatning kelishi” asari esa xizmat ko‘rsatish sohasi, axborot ishlab chiqarish, innovatsion texnologiyalar va intellektual mehnat sotsial taraqqiyotning asosiy ko‘rinishlariga aylanganini ta’kidlaydi.¹⁵

Alvin Tofflarning “Uchinchi to‘lqin” asari sotsial taraqqiyotning “to‘lqinlar nazariyasi” orqali tahlilini taklif qiladi: agrar jamiyat → industrial jamiyat → postindustrial jamiyat. Tofflarning fikricha, XXI asr taraqqiyoti axborot texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot va bilim kapitaliga asoslanadi.

Ushbu adabiyotlar mamlakatning bugungi sotsial siyosati, aholining farovonligi, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlarni o‘rganish uchun muhim manbadir.

Muhokama. Tadqiqot davomida sotsial taraqqiyotning tarixiy ildizlari, nazariy asoslari va bugungi zamonaviy rivojlanish dinamikasi har tomonlama tahlil qilindi. Adabiyotlar va statistik manbalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, jamiyat taraqqiyoti doimiy harakatdagi murakkab jarayon bo‘lib, u turli davrlarda turlicha omillar ta’sirida shakllangan. Sotsial taraqqiyotning tarixiy bosqichlari bo‘yicha klassik olimlar – O. Kont, E. Dyurkgeym, M. Veber va K. Marks nazariyalari shuni tasdiqlaydiki, jamiyat taraqqiyoti uzluksiz evolyutsion jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Kontning uch bosqich qonuni ijtimoiy tafakkurning shakllanishiga va jamiyat tuzilmasining murakkablashuvini ko‘rsatadi. Dyurkgeym esa ijtimoiy mehnat taqsimoti va jamiyatdagi birdamlik shakllari orqali sotsial tizimlarning qanday rivojlanishini ilmiy asoslab bergan. Marksning tarixiy materializm konsepsiyasi taraqqiyotning iqtisodiy asosga bog‘liqligini ko‘rsatadi, bu esa XIX–XX asrlarda sanoat jamiyatlarining tez rivojlanishiga mos keladi. Weber ratsionallashuv, byurokratik boshqaruv va modernlashuv orqali jamiyatning o‘zgarish sur’atlarini tushuntiradi. Ushbu klassik yondashuvlar sotsial taraqqiyotning tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini chuqur yoritadi. Natijalarga ko‘ra, jamiyatning eng muhim o‘zgarishlari iqtisodiy tuzumdagi yangilanishlar, mehnat taqsimotining rivojlanishi va sotsial rollarning murakkablashuvi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan.¹⁶

Natija. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi umumiy xulosalar shakllandi:

Sotsial taraqqiyot tarixiy jarayon sifatida jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillar ta’sirida shakllangan.

Klassik sotsiologlar nazariyalari sotsial taraqqiyotning asosiy qonuniyatlarini belgilab bergan va bugungi zamonaviy nazariyalarga poydevor bo‘lgan.

¹⁵ Weber, M. (1978). *Economy and Society*. University of California Press.

¹⁶ Durkheim, É. (1982). *The Rules of Sociological Method*. Free Press.



Zamonaviy dunyo innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar, globalizatsiya va axborot oqimlari asosida rivojlanmoqda.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda ijtimoiy islohotlar, iqtisodiy liberallashtirish va raqamli transformatsiya orqali taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi.

Inson kapitali – taraqqiyotning asosiy resursi ekanligi barcha tahlillarda tasdiqlandi.

Umuman olganda, sotsial taraqqiyotning tarixiy va bugungi ko‘rinishlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, jamiyat o‘zgarishlari ichki va tashqi omillarning murakkab ta‘siri natijasida sodir bo‘ladi, hamda taraqqiyotning barqaror bo‘lishi uchun davlat siyosati, innovatsiyalar, ta‘lim va ijtimoiy himoya kabi omillar muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Yuqoridagi tadqiqot tahlillari shuni ko‘rsatadiki, sotsial taraqqiyot jamiyatning tarixiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillar bilan uzviy bog‘liq murakkab jarayonidir. Insoniyat taraqqiyotining qadimiy shakllanish bosqichlaridan tortib, zamonaviy postindustrial jamiyatlargacha bo‘lgan yo‘l evolyutsion, ichki ziddiyatlar va tashqi omillar ta‘siri orqali shakllangan.

Klassik sotsiologlar — Kont, Marks, Dyurkgeym va Weber nazariyalari, shuningdek zamonaviy tadqiqotchilar — Giddens, Bell va Tofflerning konsepsiyalari tahlili shuni tasdiqlaydiki, jamiyat taraqqiyoti hech qachon bir xil yo‘nalishda emas, balki murakkab, ko‘p qirrali va doimiy o‘zgarib turadigan jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Taraqqiyotning asosiy omillari sifatida mehnat taqsimoti, iqtisodiy tuzumning yangilanishi, madaniy qadriyatlar, axborot texnologiyalari, global integratsiya va inson kapitali ajralib turadi.

Zamonaviy dunyoda sotsial taraqqiyotning bosh mezonlaridan biri — inson taraqqiyoti indeksi, ya‘ni ta‘lim, sog‘liq, yashash standartlari va ijtimoiy himoya darajasidir. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, taraqqiyotning eng muhim omili — innovatsiyalar va bilimga asoslangan iqtisodiyotdir.

O‘zbekiston misolida o‘tkazilgan tahlillar esa so‘nggi yillarda mamlakatda ta‘lim, sog‘liqni saqlash, raqamli iqtisodiyot, ijtimoiy himoya va iqtisodiy islohotlar yo‘nalishida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlar jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichiga o‘tayotganini tasdiqlaydi. “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi asosida olib borilayotgan islohotlar aholining farovonligini oshirish, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish va inson kapitaliga sarmoya kiritishga qaratilgani bilan ijobiy natijalar bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, sotsial taraqqiyot — bu bir vaqtning o‘zida tarixiy meros, hozirgi real jarayonlar va kelajak rivojlanish strategiyalarini o‘zida mujassamlashtiruvchi obyektiv hodisadir. Jamiyat taraqqiyotining barqaror



bo'lishi uchun ta'lim sifati, innovatsion rivojlanish, ijtimoiy adolat, kuchli iqtisodiy baza va samarali boshqaruv asosiy shartlar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Giddens, A. (2009). Sociology (6th ed.). Polity Press.
2. Parsons, T. (1951). The Social System. Free Press.
3. Weber, M. (1978). Economy and Society. University of California Press.
4. Durkheim, É. (1982). The Rules of Sociological Method. Free Press.

